

YOSHLARDA MA'NAVIY TARBIYA VA SIYOSIY MADANIYAT MASALASI

Obilqosimov Maxmatqobil

Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: obilqosimovmaxmatqobil@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarda ma’naviy tarbiyani shakllantirish usullari va ularda siyosiy madaniyatni oshirish yo‘llari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, yoshlar, davlat, siyosiy madaniyat, siyosiy tafakkur, siyosiy ong, ahloq, qadriyat va h.k.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены мнения о методах формирования духовного воспитания молодежи и путях повышения ее политической культуры.

Ключевые слова: Духовность, молодежь, государство, политическая культура, политическое мышление, политическое сознание, мораль, ценности и др.

ABSTRACT

This article presents opinions on the methods of forming spiritual education among young people and ways to increase their political culture.

Keywords: Spirituality, youth, state, political culture, political thinking, political consciousness, morality, value, etc.

Hozirgi ilmiy va diniy adabiyotlarda «ma’naviyat» (arabcha ma’no, ma’nolar majmui) tushunchasining 300 dan ortiq ta’rifi uchraydi, ammo ularning birontasi ham universal (umum e’tirof etgan) ta’rifga aylanmagan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “ma’naviyat” tushunchasiga keng qamrovli universal ta’rif berildi: “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”, “Ma’naviyat tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy mafkuraviy, ma’rifiy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi”. Demak, ma’naviyat – insoniyat tomonidan yaratilgan hamda yaratuvchilikka

xizmat qiladigan yaxshiliklar, insoniy fazilatlardir. Ma’naviy tarbiya –insonni axloq, milliy va umuminsoniy qadriyatlar va qonun izmida yashashga o‘rgatadi.

Inson yaxshilik, ezhulik, erkinlikka intilib yashashi jarayonida axloq, din, san’at va ilm-fan kabi ma’naviy qadriyatlarni yaratadi. XX asrda ushbu qadriyatlar insonning kuch-qudrat manbaiga aylandi. Shu bois Islom Karimov “ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuchqudratidir” degan g‘oyani ilgari suradi. Ushbu g‘oya bugun O‘zbekiston xalqining harakat dasturiga aylangan. Tinchlik, rivojlanish yo‘li – ma’naviyatda. Ma’naviyatsizlik urushga olib boruvchi yo‘l ekanligini insoniyat tarixi ko‘p ming bora isbotlagan. Buni obiq Ittifoq hududlarida paydo bo‘layotgan qarama-qarshiliklar, kecha yaqin do‘st bo‘lgan, bugun esa dushmanha aylanib, qonli urush vaziyatini vujudga keltirayotgan davlatlar misolida ko‘rish mumkin.

Tarix – inson ma’naviyatining yaratuvchisi. Ma’naviyat uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar mahsulidir. Shu bois inson tarixni bilmasdan o‘zligini anglay olmaydi. Bugun mafkuraviy poligonlarda biror-bir xalqni, insonni yengish, tobe qilish uchun uni tarixi, milliy qadriyatları va ma’naviyatidan mahrum etishga harakat qilinmoqda. O‘zbek xalqini tarixda hech kim yenga olmagan. Shuning uchun Prezidentimiz: “Biz ahil bo‘lib, el-yurt manfaatlari yo‘lida yashasak, ichimizdan sotqinlar chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi”, – degan shioriy fikrni ilgari surgan. Ushbu fikrda tariximizning achchiq haqiqati ifodalangan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Insonning kuchi uning axloqidadir. Ma’lumki, axloq umuminsoniy qadriyat bo‘lib, mehr-muruvvat, muhabbat, shafqat, qadr-qimmat,adolat, halollik, sadoqat, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi buyuk insoniy fazilatlarni qamrab oladi. Butun olam tortishish qonuni moddiy olamni birlashtirgani kabi yuqorida keltirilgan fazilatlar ham insonlarni, xalqlarni, davlatlarni birlashtiradi. Ular buyuk va yengilmas kuchdir. “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” degan xalq maqoli, Amir Temurning “Kuch – adolatda”, degan hikmati aynan ana shu qonuniyatni ifodalaydi. Bugun axloqsizlikni targ‘ib etayotgan “ommaviy madaniyat”, ya’ni, axloqsizlik falsafasi esa odamlar, xalqlar, davlatlarni bir-biridan ajratish, ularni bo‘lib tashlab, hukmronlik qilish maqsadiga xizmat qilmoqda. Ma’naviyatning arkonlaridan biri – din. Ma’lumki, vijdon, iymon, e’tiqod, barcha dinlarning negizini tashkil etadi. Hozir dunyoda uch mingdan ziyodroq din mavjud bo‘lsa, ularning barchasi odamlarni iymon, e’tiqod, sabr-toqat, tinch-osoyishta yashashga chaqiradi.

Ma’naviyat ko‘zgusi – san’atdir. Ma’lumki, san’at inson mehnatini ulug‘lovchi, “odamiylik Mulki”ni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turidir. Inson ma’naviyatini rivojlantirishda, kinoning o‘rni beqiyosdir. Dunyo miqyosida bir yilda 10 mingdan ziyod kinofilmlar ishlab chiqilmoqda. Ularning mingdan ziyodi Gollivud mahsulotlaridir. Ammo, ularning aksariyati axloq, din talablaridan chetga chiqib,

fahsh, zo'ravonlik, janggarilikni targ'ib qilayotgani achinarli holdir. Bunga aksariyat tomoshabinlarning ana shunday filmlarni ko'rishni istayotgani sabab bo'lmoqda. Shu bois, filmlarning g'oyaviy saviyasi pasayib, ko'proq "ommaviy madaniyat" kuychisiga aylanib qolmoqda. Bu masalaning yechimi ham, albatta, ma'naviyatga borib taqaladi. Insonlarning estetik didini, axloqiy fazilatlarini rivojlantirish orqaligina bu sohadagi ma'naviy tahdidlarning oldini olish mumkin bo'ladi. Fazilatlarning mazmunini anglagan holda ularga amal qilmaslik – vatanparvarlik, fidoyilik, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlarni bilgan holda ularga rioya etmaslik yoki buni xohlamaslik, tan olmaslikdir. Bunday hollarda ma'naviyat kundalik hayotda namoyon bo'lmay, faqat bilim, tushuncha yoxud tasavvur shaklida qolib ketishi mumkin.

Ma'naviyatning gultoji ilm-fandir. Darhaqiqat, bilim – ma'naviyatning harakatlantiruvchi kuchi. O'z navbatida, ma'naviyat bilimning boshqaruvchisi, chavandozidir. Bilim bo'lsa-yu, ma'naviyat bo'lmasa, bunday bilim yaratuvchanlikka emas, aksincha, buzg'unchilikka xizmat qiladi. Bunga tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson yaratgan barcha narsalardan – kompyuter, mashinalar, Internet, atom energiyasidan yaxshilik yoki yomonlik yo'lida foydalanish mumkin. Aynan ma'naviyat bilimni yaratuvchanlikka yo'naltiradi, inson xizmatiga safarbar etadi. Hatto hokimiyatning qanday bo'lishi ham ma'naviyatga bog'liq. Tarixdan ma'lumki, ma'naviyatga suyangan davlatlar rivojlangan va, aksincha, ma'naviyatga asoslanmagan davlatlar tanazzulga yuz tutgan.

XXI asrning fanda "intellektual industriya" asri deb atalishida ham ulkan ma'no mujassam. Bugun agrar va sanoat industriyasi o'z o'rnini intellectual industriyaga bo'shatib beryapti. Ilming boylik yaratish manbaiga aylangani ham ayni haqiqat. XXI asr boshlarida dunyo miqyosida yaratilgan texnika va texnologiyalarning 70 foizi AQSHga, 17,6 foizi Yaponiyaga, 6,6 foizi Germaniyaga, 5,7 foizi Buyuk Britaniyaga, 5,1 foizi Fransiyaga, 1,6 foizi Xitoya to'g'ri kelyapti. Yangi texnika va texnologiyalarning aksariyati AQSHda yaratilayotgani uchun ham u dunyoning eng kuchli davlatiga aylangan. Shu bois ayrim siyosiy kuchlar: "AQSH butun dunyonni boshqarishni o'z qo'liga olishi kerak, aks holda, vaqt boy beriladi", – deya AQSH davlatini harbiy harakatlarga ham undamoqda. Biroq AQSHda texnika va texnologiya rivojlangan bo'lsa-da, bugun u "ommaviy madaniyat", terrorizmning nishoniga aylangan. 2001-yil 11-sentabrda AQSHda sodir etilgan terrorchilik harakati fikrimizning dalilidir. Demografik, ekologik muammolar AQSH va Yevropa davlatlarini ham ma'naviyatga "murojaat etishga" majbur etyapti. Shu bois G'arb davlatlarida bugun "axloqqa qaytish" g'oyalari ilgari surilib, ta'lim tizimiga "odamiylik Mulki"ni o'rgatuvchi fanlar kiritildi. Dunyoning rivojlangan demokratik davlatlari ma'naviyat tomon yuz burayotgan bir paytda, rivojlanib kelayotgan ayrim yosh davlatlarning G'arb voz kechayotgan illatlarni yangilik sifatida qabul qilishi

achinarli holatdir. Bu holatning sababi dunyoda sodir etilayotgan global muammolardan bexabarlikdir. Shunday ekan, inson, jamiyat va davlat o‘z faoliyatini ma’naviyat asosida yuritsa, albatta, rivojlanadi.

Bugun biz yoshlar ongigaadolat, sadoqat, halollik, xalqqa xizmat qilish, xalqparvarlik, vatanparvarlik fazilatlarini kasbiy faoliyatga bog‘lab singdirishimiz zarur. Yoshlarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Negaki, insonning shaxs sifatida shakllanishi, ma’naviyatini yuksaltirish jarayonlari oila bag‘rida yuz beradi. Shuning uchun yosh avlodning ma’naviy kamol topishida oilaga muhim maskan sifatida qaraladi. Chunki bolaning yaxshi tarbiya topishi uning davomiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Farzandning atrof muhitga, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarga munosabati ota-onasi bilan bo‘ladigan tarbiyaviy, ma’naviy muloqotida o‘z aksini topadi. Yoshlikda nosog‘lom muhitda yashash natijasida bolada turli ijtimoiy illatlarga moyillik shakllanadi. Uni bunday g‘oyalardan himoya qilish ota-onaning zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Onaning bolani mehr-muhabbat bilan to‘g‘ri yo‘lga sola olishi, otaning esa uni mardlik, jasurlikka o‘rgatishi barkamol shaxs rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ta’kidlash joizki, hozirgi murakkab va notinch dunyoda hayotimizning barcha sohalarida, demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi intilishlarimizda bag‘rikenglik nechog‘lik muhim o‘rin tutishini izohlab o‘tirishga hojat yo‘q. Xo‘s, yoshlar qalbida ma’naviy tarbiyaning o‘rni nimalarda ko‘rinadi? Avvalo, yoshlarning ma’naviy-axloqiy yuksalishida, dunyoqarashi kengayishida ta’lim tizimining o‘rni va roli beqiyosdir.

Yoshlarda siyosiy ong, dunyoqarash va madaniyatni yuksaltirish masalasi ham bugungi kundagi muhim masalalardandir. Siyosiy madaniyat siyosiy harakatlarni belgilovchi e’tirof hamda tasavvurlar, demokratik barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlovchi qarashlar majmuidir. Siyosat, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishni, uning moddiy va ma’naviy boyliklarini asrab-avaylashni, mamlakatda tinchlik, barqarorlikni ta’minalashni maqsad qilib oladi. Ma’naviyat va ma’rifatni ulug‘lash, ilm-fanni yuksaltirish, yosh avlodning dunyoqarashini oshirish kabi taraqqiyparvar siyosat uning yo‘nalishi hisoblanadi. Darhaqiqat, yoshlarning ma’naviyatga, siyosiy faollikka ega bo‘lishi mamlakatning har tomonlama taraqqiy topishiga olib keladi. Davlatimiz siyosatining eng asosiy maqsadi – xalqimiz uchun, yurtimizda yashayotgan har bir inson uchun munosib hayot sharoitini yaratish, tinch-osuda, farovon turmushimizni yanada mustahkamlashdir. Ma’lumki, to‘laqonli va mukammal jamiyat ongli fuqarolarning siyosiy, huquqiy madaniyati evaziga quriladi. Fuqarolar siyosiy faolligining yuksalishi jamiyat taraqqiyotining muhim belgilaridan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, fuqarolarda siyosiy madaniyat va mas’uliyat hissi qanchalik yuksak bo‘lsa, ularning jamiyat ishi uchun javobgarligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Siyosiy faol va mas’uliyatli kishilar aholi orasida turli mafkuraviy xurujlarga

qarshi mustahkam immunitetni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Siyosiy madaniyatni shakllantirishda dastlabki qadam sifatida yoshlarni siyosiy o‘zlikni anglashga o‘rgatish kerak.

Yoshlarda yurtga sadoqat, vatanparvarlik, ezgulik, bag‘rikenglik tuyg‘ularining yuksalishida siyosiy madaniyatning o‘rni benihoya katta. Agar yoshlar ongida siyosiy madaniyat rivojlantirilsa, ularda “Shu aziz Vatan barchamizniki”, “Vatanim taqdiri – mening taqdirim” kabi ezgu g‘oyalarga daxldorlik, yurt kelajagiga mas’uliyat, muqaddas zaminimiz tinchligi va osoyishtaligini asrash, uning taraqqiy etishiga hissa qo‘shish tuyg‘ulari yanada keng qaror topadi hamda yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Karimov I.. "O‘zbekiston XXI- asr bo‘sag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqororlik shartlari va taroqqiyot kafolatlari"asari 173 bet.
2. Karimov I.. “Maqsadimiz - tinchlik, Barqarorlik, hamkorlik”. O‘zbekiston televideniesi, muxbirining savollariga javoblar 1995 yil 27 oktyabr, “Bunyodkorlik yo‘lidan”, 4 tom, Toshkent, O‘zbekiston - nashriyoti 1996 yil, 79 bet.
3. Karimov I.. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz T. 7-tom 249-250betlar
4. Raximova, D., & Ibodullaevich, K. K. Obedience to the Law is High Culture, Spirituality, IT is a Sign of Enlightenment. JournalNX, 234-236.
5. Xidirov, X., & Obilkoshimov, M. (2021). Kambag ‘allik va qashshoqlikka qarshi kurashish: oldini olish yo ‘llari, usullari va mazmun-mohiyati. Овластество и инновации, 2(11/S), 97-104.
6. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2020). Corruption: Concept, genesis, evolution and survival trends. International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education, 1(5), 409-413.
7. Khidirov, K. I., & Gofurova, S. S. (2021). The United Kingdom has a special textbook for detecting facts of corruption. Scientific progress, 2(1), 121-124.